

**INGLIZ TILIDAN XALQARO IMTIHONGA TAYYORGARLIK UCHUN FOYDALI
MANBALAR HAMDA ZARURIY TEXNIK USULLAR TAHLILI**

Abdurahmonova Muslima Fazliddin qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

abdurakhmonovamuslimakhon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada IELTS imtihoni haqida umumiy ma'lumotlar va test jarayonlarining o'tkazilish tartibi, o'quvchilarga qo'yiluvchi talablar bayon etilgan. Bundan tashqari, test topshiriqlarini bajarishda zarur bo'luvchi yordamchi texnika va metodlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: IELTS, Cambridge, Makkar, o'qish ko'nikmasi, tinglab tushunish, yozish, gapirish amaliyoti, texnikalar, ko'rib chiqish, ajratib olish, kalit so'zlar, vaqt taqsimoti.

Hozirgi kunda insonlarning chet tillariga bo'lgan qiziqishlari kundan kunga ortib bormoqda. Zamonaviy bilim va tajribalarga ega bo'lish uchun kamida bir yoki undan ortiq xorijiy tilni bilish talab etilayotgan ushbu davrda ingliz, ispan, xitoy kabi dunyo bo'ylab ko'p so'zlashiluvchi tillar barchada qiziqish uyg'otib, ularni o'rganishga bo'lgan talablar ham ortib bormoqda. Til o'rganish bilan birgalikda o'quvchilar o'z ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish maqsadida xalqaro tizimdagи imtihonlarda qatnashib, ko'rsatgan natijalari yordamida yuksak marralarni zabit etishyapti. Hozirgi davrda butun dunyo bo'ylab keng tarqalgan ana shunday xalqaro sinov tizimlaridan biri bu IELTS dir. Ushbu til imtihoni jahon bo'ylab juda mashhur hisoblanib, o'rganuvchilar qo'lga kiritgan sertifikatlari yordamida yetakchi o'quv dargohlarida ta'lim olish hamda malakali mutaxassislar jamlangan ish joylarida faoliyat yuritish imkoniga ega bo'lmoqdalar.

IELTS (International English Language Test System) – ingliz tilini sinovdan o'tkazish xalqaro tizimi 1980-yili Cambridge English Language Assessment va British Council qo'shma korxonasi hamkorligida vujudga kelgan. Oradan biroz vaqt o'tgach, IDP Avstraliya kollejlari hamda universitetlari ushbu korxona bilan hamkorlik qilishi natijasida 1989-yildan amaliyotda qo'llana boshlandi. Hozirgi kungacha IELTS dizaynida 3 marotaba (1995, 2001 va 2005-yillarda) o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, joriy ko'rinishi 2005-yildan keyingi o'zgartirish natijasida vujudga keltirilgan.

IELTS imtihoni topshiruvchilar turiga ko'ra akademik va umumiy kabilarga bo'linadi hamda ular bir-biridan deyarli farq qilmaydi. IELTS imtihonida o'quvchilar tilning asosiy qismlari hisoblangan to'rt bo'lim

bo'yicha ko'nikmalarini sinovdan o'tkazadilar. Ular tinglab tushunish, o'qish, gapirish va yozish kabilarni o'z ichiga oladi. Yuqorida keltirilgan akademik va umumiylardan tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalari bo'yicha testlar bir xil bo'lsa-da, qolgan ikki bo'lim, ya'ni yozish va o'qish mahorati bo'yicha sinovlar turlicha bo'ladi. Bundan tashqari, ko'plab yoshlar o'z bilimlarini oshirish maqsadida chet davlatlarining universitetlariga topshirish uchun akademik IELTS ni tanlasalar, kasbiy mahoratlarini kuchaytirish niyatida bo'lganlar umumiylardan IELTS imtihonlarini topshirishni afzal ko'radilar.

IELTS imtihonlarini topshirgandan so'ng har bir nomzod uchun to'plagan ballari asosida darajalar beriladi. Ushbu darajalar 1 dan to 9 gacha bo'lib, ballarga mos ravishda nomzodlarning bilimlari A1 dan C2 gacha baholanadi. Jahon bo'yicha yetakchi o'rinda turuvchi ta'lim dargohlarida yuqori foizli stipendiya ajratilishi yoxud ish beruvchi kompaniyalar tomonidan qo'shimcha imkoniyatlardan taqdim etilishi uchun nomzodlardan o'rtacha B2 yoki C1 darajadagi sertifikatlar talab etiladi.

Test jarayonlari ikki qismga bo'lingan holda tashkil etilib, ko'p hollarda ikki kun davomida o'tkaziladi. Test o'tkazilishinig birinchi kunida nomzodlarning gapirish ko'nikmalari sinovdan o'tkaziladi. Ushbu testni topshirish davomida ular uch qismdan iborat suhbatdan o'tkaziladi hamda barcha qismlarda berilgan javoblar hisobga olinib, umumiylar beriladi. Sinovning boshqa kunida o'quvchilarning qolgan uch yo'naliш bo'yicha bilimlari tekshiriladi. Bunda tinglab tushunish bo'yicha 4 qismga bo'lingan, jami 40 ta; o'qish mahorati bo'yicha 3 qismdan iborat, umumiylar hisobda 40 ta savollar berilsa, so'nggi qism yozish qobiliyatini sinovdan o'tkazish bo'yicha 2 qismdan iborat topshiriqlar beriladi. O'qish va yozish testlari uchun ma'lum vaqt belgilangan bo'lib, nomzodlarga ushbu yo'naliшdagи savollarni yechishlari uchun har biriga 1 soatdan, jami bo'lib 2 soat vaqt ajratiladi. Yakuniy ballarni hisoblash chog'ida 4 qismdagi ballar qo'shilib, ularning o'rtacha qiymati umumiylar beriladi.

Yuqorida IELTS imtihonining topshirilish jarayonlari yoritilgan bo'lib, ular ma'lum vaqt davomida puxta tayyorgarlik ko'rgan o'quvchilarning bilimlarini tekshirish uchun o'tkaziladi. Ammo ushbu sinovgacha bo'lgan paytda nomzodlardan nimalar talab etiladi? Ular qay yo'sinda tayyorgarlik ishlarini olib boradi, degan savollarga keyingi o'rinnarda javob topilishi mumkin bo'ladi.

Ta'kidlanganidek, ingliz tili bo'yicha bilimlarni mustahkamlab, IELTS sertifikatini qo'lga kiritish uchun ushbu test tizimining talablariga mos holatda puxta tayyorgarlik ko'rish lozim. Ya'ni o'rganuvchilar IELTS ning 4 qismi bo'yicha maxsus qo'llanmalar yordamida mashg'ulotlar olib borib, o'z

ustilarida ishlashlari kerak. Hozirgi kunda butun dunyo bo'yicha keng qo'llanuvchi va barcha uchun ochiq bo'lgan IELTS imtihonlariga maxsus tayyorlovchi resurslardan biri - bu Cambridge IELTS kitobi hisoblanadi. Ushbu qo'llanma nomzodlar orasida anchayin ma'lum va mashhur bo'lib, ular bu kitoblar yordamida barcha qismlarda beriluvchi savol va topshiriqlarga puxta tayyorgarlik ko'rishlari mumkin. O'rganuvchilar uchun hozirgi kungacha ushbu kitobning 14 qismi havola etilgan bo'lib, o'zida haqiqiy imtihonda tushuvchi testlarga judayam yaqin bo'lgan topshiriqlarni jamlaydi. Bundan tashqari, juda ham ko'plab o'qituvchi va o'quvchilar o'rganish uchun oson, deya baholagan Kiranprit Makkarning IELTS ga tayyorlovchi kitob va qo'llanmalari 4 ta mahoratni rivojlantirish uchun qulay manba hisoblanadi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Eng muhimi, bugungi kunga kelib IELTS topshiruvchilar o'zlariga kerak bo'lgan kitob hamda qo'llanmalarni qiyinchiliksiz topishlari mumkin bo'lmoqda.

IELTS ning asoslari bo'lgan 4 qismga e'tibor qaratilsa, ular test topshiruvchilarning bilim darajalari bilan birgalikda fikrlarini bir nuqtaga qanchalik tez va oson jamlashlarini sinovdan o'tkazishlarini ko'rishimiz mumkin. Ushbu holat, ayniqsa, tinglab tushunish bo'yicha olinuvchi sinovlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bir-biriga bog'liq bo'limgan 4 qismdan tashkil topgan bu testlarni yechishda nomzodlar diqqatlari chalg'ishi natijasida butun boshli topshiriqni bajara olmasliklari mumkin. Negaki, agar ular birinchi testda berilgan audioga yetarlicha e'tibor bermasalar,o'sha qismdagagi keyingi o'rnlarda keluvchi topshiriqlarni to'liq bajara olmaydilar. Testning 2-qismida esa beriluvchi dialog yoki monologlar 1-qismdan tubdan farq qilib, 1-qismda javob bera olmagan savol va topshiriqlarini bajarishga umuman yordam bermaydi. Shu yo'sinda ular o'zlariga zarur bo'lgan ballarni yig'a olishmaydi. Shu sababdan tinglab tushunish bo'yicha bo'layotgan sinovda nafaqat so'zlarni to'gri eshitish va yoza olish, balki diqqatni jamlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rganuvchilarga tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ko'p usullar tavsiya etiladi. Masalan, turli kalit so'zlarni belgilash metodi. Ushbu texnika yordamida audio eshittirilayotgan paytda adashmagan holda tushirib qoldirilgan so'zlarni topish mumkin bo'ladi. Bunday kalit so'zlar sifatida ushbu suhbat yoki monologlar davomida faqat bir marta keluvchi yoxud kundalik hayotda foydalanuvchi so'zlarga nisbatan kam qo'llaniluvchi so'z va iboralarni olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Qo'shimcha ravishda tushirib qodirilgan yoki parafraza qilingan so'zdan oldin kelgan so'z va iboralarning aynan o'zini yoki ularning sinonimini kalit

so'z sifatida ishlatish ham samara beradi. Bu metod yordamida berilgan topshiriqni kamchiliksiz bajara olish imkoniyati paydo bo'ladi.

O'qish ko'nikmasini tekshiruvchi sinovlar esa nomzoddan ko'p miqdordagi so'z boyligiga ega bo'lishni talab etadi. Sababi, matnda kelgan so'zlarning savol va topshiriqlarda aynan uchrash ehtimollari kam bo'lib, aksincha ularning ma'nodoshlari beriladi. Boisi, o'quvchilarning lug'at boyliklari va akademik uslubdagi so'z hamda iboralarni qanchalik mahorat bilan qo'llay olish imkoniyatlari o'qish ko'nikmasi yordamida tekshiriladi.

O'qish ko'nikmasini shakllantirishda e'tibor beriluvchi asosiy jihat – aytib o'tilganidek, so'z boyligidir. Lekin so'z boyligi bilan birgalikda o'qish qismidan yuqori natija ko'rsatish uchun bir necha texnikalar ham qo'llanib kelinadi. Pedagoglar ushbu qismni rivojlantirish uchun o'quvchilariga ko'proq inglizcha adabiyotlar, kunlik maqolalar o'qish va ularni tahlil qilishni maslahat beradilar. Haqiqiy imtihonda tushuvchi materiallarga yaqin bo'lgan matnlardan foydalanib, ularni diqqat bilan o'qib chiqish va ajratib olish metodi yordamida birgalikda ko'rib chiqadilar. Diqqat bilan o'qib olish metodida matnni boshdan oxirigacha bir marta o'qib chiqiladi. Bunda berilgan matnning ma'nosiga tushunib, unda gap nima haqida ketayotganini anglab yetish talab etiladi. Ajratib olish metodida esa o'quvchilarga gapning o'rtaida kelgan bosh harfda yozilgan so'zlar, ismlar, sonlar va ko'p holatlarda o'zları uchun notanish bo'lgan so'zlar belgilab olishlari kerakligi uqtiriladi. Ushbu texnikalar yordamida o'quvchilarda berilgan matn haqida tasavvur hosil qilish hamda so'z va iboralar yordamida savol va topshiriqlar matnning aynan qaysi qismidan olinganini osonlik bilan aniqlab olish ko'nikmasi shakllantiriladi. Bunday texnikalarga ko'plab misollarni keltrish mumkin.

Yozish ko'nikmasi bo'yicha testlar nisbatan murakkab sinov hisoblanib, ular nomzoddan kreativlik va keng dunyoqarashga ega bo'lishni talab etadi. Ushbu test qismi ikkiga bo'linib, birinchi qismda o'quvchi berilgan rasm uchun ta'rif bersa, ikkinchi qismda turli muammolarga yechim topishi, ma'lum narsalar uchun foydali va zararli tomonlarni ko'rsatishi yoxud o'z fikrlarini dalillar bilan isbot qilishi kerak bo'lgan topshiriqlar beriladi. Yozish ko'nikmasi bo'yicha imtihonda nafaqat to'g'ri yozish, balki nomzod o'z fikrini keltirgan holda, nega uning qarashlari to'g'ri ekanligini asoslab berishi ham shart bo'ladi.

Yozish ko'nikmasini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri bu finimsiz mashg'ulotlar olib borishdir. Nomzodlar yuqori natijaga erishishlari uchun ko'proq esse va matn yozishlari, qilgan xatolarini takrorlamaslikni o'rganishlari va akademik lug'atlardan ko'proq foydalanishlari kerak bo'ladi. Bundan

tashqari, ma'lum bir mavzuga oid insho yozayotgan paytlarida fikrlarni bir-biriga bog'lash uchun maxus so'z va iboralardan foydalanish, oddiy gaplardan ko'ra kengaygan murakkab qo'shma gaplardan ishlatish ham yuqori natijaga erishish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Birinchi qismda beriluvchi turli jadval va diagrammalarni tasvirlayotgan paytda vaqtlar davomidagi o'zgarishlarni bir-biriga solishtirish va ularni ma'lum tartib asosida bayon etish maqsadga muvofiqdir. Ikkinci qismdagi kamida 250 ta so'zdan iborat bo'luvchi insholarni o'z fikrlashidan kelib chiqib yozish ancha oson va foydaliroqdir. Boisi, insholarda ko'chirmachilikka yo'l qo'yish, fikrni to'liq tushuntira olmaslik va ularga xulosa keltirmaslik ball yo'qotishga olib keladi. Agar o'quvchi mashhur insonlar: olimlar, tarixiy shaxslar, shoirlar, yozuvchilar va shunga o'xshash odamlarning gaplarini o'z matnlari ichida keltirib o'tsalar, albatta, ularning qaysi kitobdan olganliklari yoxud ushbu so'zlar aynan kimga tegishli ekanini ko'rsatib o'tishlari shart. Aks holda, tekshiruvchilar tomonidan bu plagiarizm, deya baholanib, ballar ko'tarilishi emas, yo'qotilishiga xizmat qiladi. Qo'shimcha qilish kerakki, yozma imtihonni topshirish paytida vaqt ni to'g'ri taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi qism uchun berilgan 20 daqiqada o'quvchi keltirib o'tilgan jadval va diagrammalarni to'lig'icha emas, faqat e'tiborga molik qismlarini ta'riflashi zarur. Barcha vaqtdagi ma'lumotlar haqida ham yozish mumkin, lekin bu ko'pincha vaqtdan yutqazishga olib keladi. Ikkinci qism uchun esa 40 daqiqa vaqt berilib, kamida 250 ta so'zdan iborat, mazmunan bir-biriga bog'langan insho yozish talab etiladi. Ushbu inshoda aniq va dalillarga asoslangan fikrlarni keltirish inshoni mukammal qilishga yordam beradi.

So'nggi qism bu so'zlashuv hisoblanib, nomzodlar turli mavzular bo'yicha og'zaki sinovdan o'tkaziladi. So'zlashuv uchta qismga ajratilib, birinchi qismda test topshiruvchidan umumiyligi tipdag'i savollar so'raladi. Bu savollar ular kundalik hayotda qiluvchi ishlari, foydalanuvchi buyumlari, oilasi yoxud do'stlari haqida bo'lishi mumkin. Bunday turdag'i savollarga javob berishda qisqa va aniq javoblardan foydalanish tavsiya etiladi. Sababi, birinchi qism imtihon oluvchining sinov topshirayotgan inson haqida tasavvurga ega bo'lishi uchun xizmat qiladi. Ikkinci va uchinchi qismda esa nomzodning so'z boyligi, boshqalar bilan qanday muloqot qilishi, suhbat olib borilayotgan mavzuni qanchalik yaxshi anglab yetishi tekshiriladi. Ushbu qismlarda savollarga aniq va to'liq javob berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu qismda bir so'zdan qayta-qayta foydalanish, mavzudan chiqib ketish, to'xtalib qolish, ikkilanish kabilalar ballning pastlab ketishiga sabab bo'ladi. Suhbat paytida hayajonlanish va imtihon oluvchiga gaplarni yodlab olgandek yetkazib berish unda yaxshi taassurot uyg'otmasligi hamda

noqulay vaziyatlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu narsalarni hisobga olgan holda shuni aytish mumkinki, o'quvchilar ko'proq mashq qilishlari, nafaqat do'stlari yoki tanishlari, balki notanish insonlar bilan ham muloqot olib borishlari ulardag'i qo'rquv va hayajonni yengishga hamda xatosiz suhbat olib borishlariga yo'l ochadi.

Xulosa o'mnida shuni aytish mumkinki, IELTS imtihonlari o'rganuvchilar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi hamda ingliz tilini mukammal o'rganishda katta foyda beradi. O'qish jarayonida ko'nikmalarni rivojlantirib borish esa yuqori ballarni qo'lga kiritishda asqatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. K.K.Makkar. Makkar IELTS. English for exam. // Makkar IELTS 2023
2. E.Ferguson. Ideas for IELTS topic. //www.ieltsliz.com
3. P.Cullen., A.French. Cambridge English IELTS //Cambridge university press. 2023